

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

BOSHLANG'ICH SINFLARDA YAXSHI O'QISH MALAKASINING SIFATLARI.

Usmonova Odinaxon Sobirovna

Farg'onan davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinfning tez o'qish, ongli o'qish, ifodali o'qish, va shuning dek o'qish turlari haqida gi ilmiy mulohazalar tahlil qilingan. Tez o'qish ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qishdir. Og'zaki nutq tempiga mos keladigan o'qish tempi normal tezlik hisoblanadi. O'ta tez o'qish va o'ta sekin o'qish matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi. O'qish tezligi bir dakikada uqiladigan suzlar miqdori bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: o'qish mavzulari, o'qish sur'ati, nutq madaniyati, bo'g'inlab o'qish, sidirg'a o'qish, avtomatlashgan o'qish , analitik bosqich, sintetik boskich, avtomatlashgan bosqich, ifodali o'qish, to'g'ri o'qish, ongli o'qish.

K.D.Ushinskiy tez o'qish matnni tushunishdan ajralib qolmasligi lozimligini ta'kidlaydi. O'qish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o'sishi kerak.

Tez o'qish ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qishdir. Og'zaki nutq tempiga mos keladigan o'qish tempi normal tezlik hisoblanadi. O'ta tez o'qish va o'ta sekin o'qish matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi. O'qish tezligi bir daqiqada o'qiladigan so'zlar miqdori bilan belgilanadi.

Tez o'qishni ta'minlovchi yo'llar:

- 1.O'qishni turli topshiriklar asosida mashq qilish
- 2.O'qishga qiziqish uyg'otish.
- 3.Rollarga bo'lib o'qitish.

Dialoglarni 2 o'quvchiga o'qitish:

- 1.) oldin tez o'qiydigan o'quvchiga 2)keyin sekin o'qydigan o'quvchiga;
- 4.Matnni navbat bilan o'qitish.

Ko'pincha o'quvchilar tez o'qiymen deb xatoga yo'l qo'yadilar.

O'quvchilarning o'qish sur'ati bir daqiqada sinflar bo'yicha quyidagicha :

- 1-sinf: 1 yarim yillikda bo'g'inlab o'qiydi.
- 2-yarim yillik oxirida notanish matndan 20-25 so'z .

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

2-sinf: 1-yarim yillikda 25-30 so‘z. 2-yarim yillikda 40-50- so‘z.

3-sinf : 1-yarim yillikda 50-60 so‘z. 2-yarim yillikda 65-70 so‘z.

4-sinf: 1-yarim yillikda 70-80 so‘z.

2-yarim yillikda 80-90 so‘z.

Ongli o‘qish. Asar mazmunini, asarning g‘oyaviy yo‘nalishini, timsollarini , badiiy vositalarini rolini tushunib o‘qish ongli o‘qish deyiladi. Bola asarda tasvirlangan voqeaxodisalarga munosabat bildira olsa, ongli o‘zlashtirgan bo‘ladi.

Ongli o‘qish quyidagi metodik shartlarga bog‘lik:

1.O‘quvchining hayotiy tajribasiga.

2.So‘zlarning lug‘aviy ma'nosini tushunishga.

3.Gapda suzlarning bog‘lanishini tushunishga.

Ongli o‘qish 2 xil ma'noda qo‘llanadi. 1) o‘qish texnikasi;2) o‘qish sifati.

Asar qurilishini tushunish ongli o‘qishdir. O‘quvchining ongli o‘zlashtirib o‘qigani uning ifodali o‘qiganidan asar yuzasidan berilgan savollarga javobidan aniklanadi. Ongli o‘qish bilan ifodali o‘qish biri ikkinchisini taqozo etadi.

Ifodali o‘qish. Asarni uning goyasiga, yozuvchining niyatiga mos ravishda, o‘qish, asar jozibasini ifodalab, ravon aniq, to‘g‘ri o‘qish ifodali o‘qish deyiladi. Ifodali o‘qish adabiyotni aniq va kurgazmali o‘qitishning dastlabki va asosiy formasidir. O‘qituvchi , ifodali o‘qish orqali asar mazmunini va emotSIONalligini o‘quvchilarga ko‘rgazmali ravishda yetkazadi.

Intonatsiya – urg‘u, temp, ritm, to‘xtam, ovozning baland-pastligining yig‘indisi. Bo‘lar og‘zaki nutq elementlaridir. Bu orqali qahramonlarining turli kayfiyatları, ichki kechinmalari ifoda etiladi.

Ifodali o‘qishni egallahning asosiy shartlari:

1.Nafasni to‘g‘ri olish va to‘g‘ri sarflash.

2.Tovushlarni aniq talaffuz qilish, burro gapirish.

Z.Adabiy talaffuz normalarini egallah.

Bular ifodali nutqqa ham taalluqli. Ifodali o‘qish shartlaridan yana biri ovozning baland-pastligi,yoki mliligi,ulush o‘rnida asar mazmuniga mos holda o‘zgartira olishlik.

Ifodali o‘qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo‘linadi:

Qahramonlarning xatti-harakatini tahlil qilish, royasini belgilash, badiiy vositalarning vazifasini tushunish. Demak, asar tahlili ifodali o‘qishni ta'minlaydi.

2.Pauzaning, urg‘uning o‘rnanni, nutq tempini belgilab olish.

3.O‘qishni mashq qilish.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Avvalo o‘qituvchi ifodali o‘qish namunasini ko‘rsatish zarur. Ifodalilik ko‘rgazmalilik demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gapparova T., Shodmonov E. , Eshturdiyeva G.l , “Alifbe ”; “Savod ” ; “ Ona tili ” T ., “O‘qituvchi ”1999 yil
2. Safarova R . va boshqalar “Alifbe ” T ., 2006 yil
3. G‘ulomova X., Yo‘ldasheva Sh .“ Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi ” ma’ruza matnilari T., 2006 yil